

YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING YOZUV KO'NIKMALARINI BADIY FILMLAR ORQALI OSHIRISH

Toshboyeva Barnoxon

Ilmiy rahbar: ADCHTI Pedagogika fanlar doktori

Kozimova Mohiraxon

Ingiliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti

1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17439428>

Annotatsiya

Maqolada badiiy filmlar vositasida yozuv ko'nikmalarini ivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, yuqori sinf o'quvchilarining yozuv ko'nikmalarini badiiy filmlar asosida rivojlantirish metodikasi va uning tajriba-sinov natijalarini yoritadi.

Kalitso'zlar: yozma nutq, badiiy film, yozuv ko'nikmalari, yuqori sinf o'quvchilari, reproduktiv yozuv, produktiv yozuv, kreativ yozuv, audiovisual vositalar.

Kirish

Zamon rivojlanib borar ekan insoniyat hayotiga ko'plab yangiliklar kirib keladi. Mana shulardan biri bu ta'lim jarayonida yuqori sinf o'quvchilarining yozuv ko'nikmalarini oshirishda badiiy filmlardan foydalanishdir. Negaki badiiy filmlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va uni yozma bayon qilish singari ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Avvalambor yozuv ko'nikmalari hamda ularning turlari va mohiyati haqida fikr yuritsak.

Inson tafakkurining asosiy ifoda shakli bu nutqdir va asosan ikki turda — og'zaki hamda yozma shaklda bo'ladi. Yozma nutq og'zaki nutqdan bir nechta jihatlari bilan farq qiladi. Og'zaki nutqda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi jonli aloqa ohang, yuz ifodasi, imo-ishora va shu kabi qo'shimcha vositalar orqali ifodalanadi. Yozma nutq esa bunday vositalar mavjud emas, fikrlar faqatgina so'zlar, tinish belgilar va uslubiy ifodalar orqali yetkaziladi va shu sabab ushbu nutqda jumla tuzish, unga mos so'zlarni tanlay bilish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yozma nutqni o'rganish va uni rivojlantirish jarayonida tilshunos olimlar yozuv ko'nikmalarini odatda uch asosiy turga bo'ladilar. Reprodukativ yozuv ko'nikmasi-tayyor ma'lumotni qayta yozish, berilgan manba asosida yozish faoliyati bo'lib, mavjud axborotni ifoda etish, orfografika va grammatikaga rioya qilish kabi xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Produktiv yozuv ko'nikmasi-berilgan mavzu, reja yoki vaziyat asosida mustaqil matn yaratish. Asosiy xususiyatlari: yozuvchining o'z fikrini ifodalashi, mustaqil tahlil qilishi hamda bog'lovchi vositalardan unumli foydalanish singari malakalarni oshiradi. Kreativ yozuv esa yozuvchining shaxsiy tajribasi, tasavvuri va his-tuyg'ulariga asoslangan hamda to'liq mustaqil ijodiy yozuv faoliyatidir.

Yozma nutqning rivojlanish turli yoshda har xil bo'lishi mumkin. Jumladan, o'quvchilarning yuqori sinf paytida yani 15-18 yosh davr oralig'ida old miya po'stlog'i faol rivojlanadi va shu sabab ularda analitik qobiliyat, mantiqiy hamda ijodiy fikrlash sezilarli darajada kuchayadi.

Ta'lim jarayonida audiovisual vositalar, xususan, badiiy filmlardan foydalanishning pedagogic va psixologik imkoniyatlari juda keng. Chunki yaxshi filmlar yoshlarga ichki ziddiyatlarni qahramonlar tajribasi orqali yechishni o'rgatadi va shu bilan birga ularning

xarakter, qadriyatlar va axloqiy qarashlarini shakllantiradi. O'zbek olimlari ta'kidlaganidek, o'quv jarayonida badiiy filmlardan foydalanish o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantiradi. (I. Jo'rayev, 2019). Filmni faqat "tasvirlar ketma-ketligi" emas, balki o'qiladigan matn sifatida tahlil qilish mumkin. Bu nazariya "Film as text" deb nomlanadi va u odatda semiotika, lingvistika va madaniyatshunoslik kabilarga tayanadi.

Badiiy filmlar asosida yozma ishlarni tashkil etish ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqiy, estetik va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Film o'quv materiali sifatida nafaqat til va nutqni o'rganishga, balki madaniy qadriyatlarni idrok etish va o'z fikrini mustaqil ifodalashga xizmat qiladi. Shu sababli, zamonaviy pedagogika tizimida film asosidagi yozma ishlarga metodik yondashuvlar tobora keng qo'llanilmoqda.

O'zbekiston tajribasida badiiy filmlar ta'lim jarayonida asosan ona tili, adabiyot va xorijiy tillar darslarida qo'llaniladi. O'quvchilar film mazmunini tahlil qilish, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, voqealar rivojini izohlash orqali yozma nutq mashqlarini bajaradilar. Metodik jihatdan bu yondashuv "matn asosida ijodiy yozuv" tamoyiliga tayanadi, ya'ni o'quvchi tayyor badiiy materialdan kelib chiqib, o'z fikrini yozma shaklda ifodalaydi. Ko'plab o'qituvchilar film asosida taqriz, esse, tavsifnoma, ssenariy kabi yozma ish turlarini tashkil etadilar.

Xorijiy davlatlar metodikasida esa film tahliliga asoslangan yozma ishlar ko'proq kommunikativ kompetensiyani shakllantirish vositasi sifatida qo'llaniladi. Masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada ingliz tili darslarida "film review writing" (filmga taqriz yozish) yoki "character analysis essay" (qahramon tahlili esse) mashg'ulotlari keng tarqalgan. Yevropa mamlakatlarida esa film asosida yozma ishlar interaktiv yondashuv bilan birgalikda olib boriladi — o'quvchilar filmni tomosha qilgach, kichik guruhlarda muhokama o'tkazadilar, so'ngra o'z yozma fikrlarini mustaqil tarzda bayon etadilar.

Mashg'ulot uchunt anlanadigan film o'quvchilarning yosh, psixologik va estetik xususiyatlariga mos bo'lishi zarur. Film tanlashda quyidagi mezonlarga e'tibor qaratish zarur:

1. Badiiy qiymati — filmning g'oyaviy yo'nalishi, estetik mazmuni, ifoda uslubi, kinematografik yechimlari.

2. Tarbiyaviy ahamiyati — filmda ko'tarilgan muammolarning o'quvchilar dunyoqarashi va ma'naviy tarbiyasiga ijobiy ta'siri, undagi ijobiy qahramonlar va insoniy qadriyatlarning targ'ib etilishi.

3. Yoshga mosligi — filmning syujeti, muammosi va ifoda vositalari o'quvchilarning yosh psixologiyasiga mos bo'lishi lozim.

Yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda badiiy film asosida mashg'ulotlarni quyidagi bosqichlarda tashkil etish maqsadga muvofiq:

1. Tayyorgarlikbosqichi

Bu bosqichdao'qituvchi film haqida dastlabki ma'lumot beradi (film nomi, muallifi, janri, g'oyasi), o'quvchilarning e'tiborini asosiy mavzuga yo'naltiradi. Filmni tahlil qilishdan avval yo'naltiruvchi savollar beriladi:

—Sizningcha, filmda qanday muammo ko'tariladi?

—Asosiy qahramon qanday hayotiy sinovlarga duch keladi?

2. Namoyish va tahlil bosqichi:

Film tomosha qilinadi va o'quvchilar bilan birgalikda syujet chizig'i, g'oya, qahramonlarning ichki kechinmalari, filmda qo'llanilgan badiiy vositalar haqida suhbat

o'tkaziladi. O'quvchilar o'z fikrlarini og'zaki bildiradilar, bu esa keyinchalik yozma ishlarga zamin yaratadi.

3. Yozma ish bosqichi:

Film asosida o'quvchilar turli janrlardagi yozma ishlarni bajaradilar: Tahliliy yozma ishlar: taqriz, insho, qiyosiy tahlil, esse; Ijodiy yozma ishlar: muqobil yakun yozish, qahramon nomidan monolog yoki maktub yozish, voqeani boshqa nuqtayi nazardan bayon etish. Bunday topshiriqlar o'quvchilarni film mazmunini chuqur anglashga, tahlil qilishga va mustaqil fikr bildirishga o'rgatadi.

4. Yakuniy bosqich:

O'quvchilar yozgan ishlarini sinfda o'qib eshittiradilar, o'qituvchi esa tahlil jarayonida yozma ishlardagi grammatik, mantiqiy va uslubiy xatolarni muhokama qiladi. Shu orqali o'quvchilar o'z fikrini ifodalash madaniyatini yanada mustahkamlaydilar.

Badiiy filmlar asosida yozuv ko'nikmalarini yanada takomillashtirish metodikasining qay darajada samaradorli ekanligini aniqlash maqsadida bir qancha tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Ushbu jarayon davomida 11-sinf o'quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishga oid diagnostic topshiriqlar tizimi tayyorlandi. O'quvchilarga film namoyish etildi va uning syujeti asosida yozma taqrizlar yaratish topshirig'i yuklatildi. Natijada yozma nutq sifati 27-30% ga yaxshilanganligi kuzatildi (B.Xolmatov, Pedagogik tadqiqot metodlari Toshkent: TDPU nashriyoti, 94-bet, 2021).

Xulosa

Yuqori sinf o'quvchilarining yozuv ko'nikmalarini aynan badiiy filmlar orqali rivojlantirish bugungi ta'lim uchun dolzarb yondashuvdir. Film — bu nafaqat ko'ngilochar vosita, balki tahlil, muloqot va fikrlash maydoni hamdir. O'quvchi filmni tomosha qilar ekan, unda bir vaqtning o'zida nutqiy, tahliliy va ijodiy tafakkur uyg'onadi. Shunday paytda o'qituvchining vazifasi — bu jarayonni yozma ifodaga aylantirish, ya'ni film asosida fikrni matnga ko'chirishga o'rgatishdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Xolmatov, B. (2021). Pedagogik tadqiqot metodlari. Toshkent: TDPU nashriyoti
2. G'ulomov, T.N. (2019). Audiovizual vositalar ta'siri va ta'lim jarayonida ularning o'rni. Toshkent
3. N.Xudoyberdiyeva, O'quvchilarning yozma nutqini shakllantirish nazariyasi va amaliyoti, Toshkent 2017
4. M.Jo'rayev, Pedagogik psixologiya asoslari, Toshkent 2020
5. A.Karimov, Badiiy tahlil asoslari, Toshkent (2018)
6. Z.Tohirova, Ona tili ta'limida interfaol metodlar, Toshkent "Yangi asr avlodi" 2021.